

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI AMALGA OSHIRISHDA SOLIQDAN TASHQARI DAROMADLARNING AHAMIYATI

O‘ktamova Nargiza Narzulla qizi

Toshket moliya instituti

E-mail: uktamova.nargiza@mail.ru

ANNOTATSIYA

Davlat jamiyatga turli xildagi ijtimoiy xizmatlar: milliy xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtajlarga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatadi va bularning barchasi katta xarajatlarni talab etadi. Budjet daromadlari soliqlar, soliqdan tashqari daromadlar va yana bir qancha mablag‘lardan shakllanadi.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, soliq, soliqdan tashqari daromadlar

ABSTRACT

The state provides a variety of social services to society: national security, public order, environmental protection, assistance to those in need of social protection, and free social services to the population, all of which require significant costs. Budget revenues are formed from taxes, non-tax revenues and some other funds.

Key words: government budget, tax, non-tax revenues.

Iqtisodiy o‘shish bo‘yicha davlatning soliq va soliqdan tashqari tushumlarini rag‘batlantirish va cheklashdan ko‘ra, davlatning bu tushumlarini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy nuqtai nazardan budjet - bu budjetni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonida namoyon bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisiligi

barchamizga ma'lum. Agar budget jarayonining ta'rifini ko'rib chiqsak, dunyoning istalgan davlati uchun bu kontseptsiyaga kiritilgan asosiy shart budget jarayoni ishtirokchilarining budget loyihalarini tuzish va ko'rib chiqish, budgetlarni tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilishdagi faolligidir.⁶³

Tushunarli qilib bayon etadigan bo'lsak soliqlar va soliqsiz daromadlar o'rtasidagi farq quyidagicha:

Soliqlar jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan olingan daromaddan (to'g'ridan-to'g'ri soliq) va tovarlar va xizmatlar operatsiyalari qiymatidan (bilvosita soliq) undiriladi. Boshqa tomondan, soliqsiz daromadlar davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladi. Shuningdek, u turli maqsadlar uchun davlat tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. E'tiborlisi shundaki, soliq olinishi belgilangan daromadni to'lash majburiydir. Biroq, soliqsiz ya'ni soliq bo'lmagan daromadlar faqat davlat tomonidan taqdim etilgan xizmatlardan foydalanganda to'lanishi kerak.

Mamlakatimizda ham davlat budjeti qisman soliqsiz daromadlar hisobidan ham shakllantiriladi. Bunday daromadlar jumlasiga qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika budgetiga yo'naltiriladigan to'lovlar kiradi. Bu to'lovlarning tarkibiy qismlari bilan quyida tanishib chiqamiz.

O'zbekistonda soliqsiz daromadning tarkibiy qismlari davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari, jarima sanksiyalari va davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, belgilangan normativlar bo'yicha davlat aktivlarini joylashtirishdan va foydalanishga berishdan olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident bo'lgan yuridik shaxslarga berilgan budget ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar,

⁶³ Мухина, Е.Р. Теоретические аспекты бюджетирования как элемента ресурсного обеспечения управленческого учета // Вестник Пермского Университета, Экономика.2014. № 1(20). С. 70-76.

aksiyalarning davlat ulushi (payi) bo‘yicha dividendlar (daromadlar), bundan mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) mustasno, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo‘yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va boshqa daromadlar kiradi.⁶⁴

Shuningdek xorijiy mamlakatlar tajribasini kuzatar ekanmiz davlat budjeti va mahalliy budjetlarining daromad qismi nafaqat soliqlarga asoslanadi balki soliqsiz daromadlarning ham ulushi mavjud.

Xususan Yaponiya budjet tizimi barcha turdagi budjetlarning yig‘indisidir. Yaponiya moliya tizimi federal budjetni, mahalliy byudjetni va maxsus hisobvaraqlarni o‘z ichiga oladi, ularda maxsus fond va firma va korporatsiyalar uchun hisob qaydnomasi mavjud bo‘lib, ular o‘z navbatida federal va mahalliy hukumatlarga tegishli. Yagona davlat sifatida Yaponiya ikki bosqichli budjet tizimiga ega bo‘lib, u quyidagilardan iborat: milliy byudjet va mahalliy hokimiyat budjeti. Ushbu bo‘g‘inlarga qo‘shimcha ravishda milliy moliya tizimiga maxsus fondlar va davlat korporativ moliyasi kiradi. Yaponiyada bir qator boshqa davlatlar bilan solishtirganda soliqdan tashqari daromadlarning ulushi ancha yuqori. Shunday qilib, davlat budjetida soliqlar qariyb 85% va soliqsiz mablag'lar - 15%⁶⁵ni tashkil etadi, mahalliy hokimiyat organlari soliqsiz daromadlarning chorak qismiga ega.

Bunga quyidagilar kiradi: ijara, yer va boshqa kommunal ko‘chmas mulkni sotish, jarimalar, obligatsiyalarni sotish, lotereyalardan olingan daromadlar, kreditlar.

Yaponiyada soliq tizimi, AQSH va Yevropa mamlakatlaridagi kabi, soliqlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ular har bir hududiy boshqaruv organini yig‘ish huquqiga ega. Ammo mamlakatning barcha soliqlari qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Davlat bojining har bir turi qonun bilan tartibga solinadi. Mahalliy soliqlar to‘g‘risidagi

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020-y., 03/20/655/1660-son

⁶⁵ Все о Японии. [Электронный ресурс]: <https://mirjapan.ru/>

qonun ularning turlari va marjinal stavkalarini belgilaydi, qolganlarini esa mahalliy parlament belgilaydi.

Yaponiyada jamg'arma darajasi yuqori. Yaponiyaning 1988-yilgacha amalda bo'lgan va barqaror xarakterga ega bo'lgan soliq tizimi jamg'armalarning yuqori darajasiga hissa qo'shgan. Ma'lumki, urushdan keyin Yaponiyada kapitalning sezilarli darajada yetishmasligi kuzatilgan bo'lib va shuning uchun soliq siyosati iste'molni cheklash va jamg'armalarni rag'batlantirishga qaratilgan. Xususan, import qilinadigan tovarlarni iste'mol qilish cheklangan, avtomobillar va elektron jihozlarni sotib olish uchun soliq mavjud bo'lgan. Shuningdek mamlakatda 25 ga yaqin davlat va 30 ga yaqin mahalliy soliqlar mavjud.⁶⁶

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Yaponiya har yili nafaqat mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy elementlarini takomillashtiribgina qolmay, balki budjet jarayonini amalga oshirishning yangi tamoyillarini ham shakllantiradigan davlatdir. Ushbu mamlakat nafaqat O'zbekiston Respublikasida, balki boshqa mamlakatlarda ham qo'llanilishi yoki mos kelishi mumkin bo'lgan bir qator o'ziga xususiyatlariga ega.

Shuningdek davlat moliyaviy mablag'larining muhim manbai sifatida soliqdan tashqari tushumlar butun davlat tizimining tegishli funktsiyalarini bajarishi uchun katta miqdordagi mablag'larni ta'minlashi mumkin. Xususan u mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashishi, infratuzilmani va davlat xizmatlarini optimallashtirishi, iqtisodiy tizimni isloh qilishga, milliy iqtisodiyotning barqaror, jadal va sog'lom rivojlanishiga ko'maklashishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Normativ-huquqiy hujjatlar

⁶⁶ Мировой опыт: особенности налогообложения в Японии // https://www.google.com/amp/s/online.zakon.kz/Document/%3Fdoc_id=30046246

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-589-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020-y., 03/20/655/1660-son

3. Davriy nashrlar va to‘plamlar

4. Мухина, Е.Р. Теоретические аспекты бюджетирования как элемента ресурсного обеспечения управленческого учета // Вестник Пермского Университета, Экономика.2014. № 1(20). С. 70-76.

5. Мировой опыт: особенности налогообложения в Японии // https://www.google.com/amp/s/online.zakon.kz/Document/%3Fdoc_id=30046246

2. Internet saytlari

6. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

7. www.lex.uz (O‘R qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi)

8. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)

9. www.mirjapan.ru (Все о Японии. [Электронный ресурс])

